XALQ DEPUTATLARI XO'JAOBOD TUMAN KENGASHI

171400. Xo'jaobodshahar, Uzunko'cha, tel: (8 374) 741-10-01 faks: 741-21-13, E-maill: xojaobod@andijan.uz

2024 - yil 15 - yanvar VI-43-2-1-27-K/24 Xo‘jaobod tumani hokimligi

Xo‘jaobod tuman bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-farmonining 4-bandiga muvofiq tuman moliya bo‘limi va davlat soliq inspeksiyasining “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan erlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflari muhokama etib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 9-dekabrdagi “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash to‘g‘risida”gi 06/04-34/4103 va 19/10-161583-sonli qo‘shma xatida quyidagilar,

Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2023-yilda 1,1 baravarga indeksasiya qilinishi kutilayotganligi;

Xo‘jaobod tuman uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 29,0 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 265,8 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

Kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha Moliya bo‘limining hamda tuman

Davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi ma’qullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

Xo‘jaobod tuman hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

Xo‘jaobod tuman hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2023-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman xalq deputatlari Kengashlariga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida
0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashlari bir hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, 2024-yilning 5-yanvariga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq organlariga taqdim etish tavsiya etilsin.

5. Tuman xalq deputatlari Kengashi ushbu qarorning ilovasiga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

6. Xo‘jaobod tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Musaev) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 1-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

7. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev) hududiy soliq organlari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O.Oribjonov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Mirzaolimov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **U.Shukurov**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-43-2-1-27-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalari

mln.so‘mda

T/R	Viloyat hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,5-2,0)	Tuman (shaharlar) kesimida 1 gektar uchun er solig‘i	Tuman (shahar) hududlari *(MFY, OFY, dahalar, ko‘chalar)*	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan kamytiruchi va oshiruvchi koeffitsient (0,7-3,0)	Daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***	***7***	***8***	***9***
19	**Xo‘jaobod tumani**	**44**	**0,74**	**32,56**	Andijon MFY	32,6	0,89	29,0
					Bahrin MFY	32,6	0,89	29,0
					Beshkaram MFY	32,6	0,89	29,0
					Beshqovoq MFY	32,6	0,70	22,8
					Bobur MFY	32,6	0,89	29,0
					Gara gura MFY	32,6	0,89	29,0

					Guliston MFY	32,6	0,89	29,0
					Dilkushod MFY	32,6	0,89	29,0
					Yetmishmergan MFY	32,6	0,89	29,0
					Jo’me MFY	32,6	0,89	29,0
					Ipakchi MFY	32,6	0,89	29,0
					Karnaychi MFY	32,6	0,70	22,8
					Qorabuloq MFY	32,6	0,89	29,0
					Quvvatmurod MFY	32,6	0,89	29,0
					Qurama MFY	32,6	0,89	29,0
					Ko‘prikboshi MFY	32,6	0,89	29,0
					Manak MFY	32,6	0,89	29,0
					Mustakillikning 27 yilligi MFY	32,6	0,89	29,0
					Mustahkam MFY	32,6	0,89	29,0
					Navbahor MFY	32,6	0,89	29,0
					Navoiy MFY	32,6	0,89	29,0
					Nishobbo‘yi MFY	32,6	0,89	29,0
					Orday MFY	32,6	0,89	29,0

					Sanoatchilar MFY	32,6	0,89	29,0
					Sarqamish MFY	32,6	0,90	29,3
					Solpi MFY	32,6	0,90	29,3
					Yuksalish MFY	32,6	0,90	29,3
					Tosh ota MFY	32,6	0,70	22,8
					To‘raobod MFY	32,6	0,70	22,8
					Uzun ko‘cha MFY	32,6	0,89	29,0
					Uch ko‘cha MFY	32,6	0,89	29,0
					Ipak yo‘li MFY	32,6	0,72	23,4
					Xidirsha MFY	32,6	0,89	29,0
					Chimbuloq MFY	32,6	0,89	29,0
					Fayzobod MFY	32,6	0,89	29,0
					Shahrixonsoy MFY	32,6	0,89	29,0
					Yangi Farg‘ona MFY	32,6	0,70	22,8
					Yangi hayot MFY	32,6	0,89	29,0
					Mustaqillikning 30 yilligi MFY	32,6	0,89	29,0

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-43-2-1-27-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalari

so‘mda

T/R	Viloyat hududlari	1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,5-2,0)	Tuman (shaharlar) kesimida 1kv.metr uchun yer solig‘i	Tuman (shahar) hududlari *(MFY, OFY, dahalar, ko‘chalar)*	1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan kamaytiruchi va oshiruvchi koeffitsient (0,7-3,0)	Daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 1kv.metr uchun yer solig‘i
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***	***7***	***8***	***9***
19	**Xo‘jaobod tumani**	**394,0**	**0,71**	**279,74**	Andijon MFY	279,7	0,95	265,8
					Bahrin MFY	279,7	0,95	265,8
					Beshkaram MFY	279,7	0,95	265,8
					Beshqovoq MFY	279,7	0,70	195,8
					Bobur MFY	279,7	0,95	265,8
					Gara gura MFY	279,7	0,90	251,8
					Guliston MFY	279,7	0,90	251,8
					Dilkushod MFY	279,7	0,90	251,8
					Yetmishmergan MFY	279,7	0,90	251,8
					Jo’me MFY	279,7	0,95	265,8
					Ipakchi MFY	279,7	0,70	195,8
					Karnaychi MFY	279,7	0,70	195,8

					Qorabuloq MFY	279,7	0,90	251,8
					Quvvatmurod MFY	279,7	0,70	195,8
					Qurama MFY	279,7	0,75	209,8
					Ko‘prikboshi MFY	279,7	0,90	251,8
					Manak MFY	279,7	0,90	251,8
					Mustaqillikning 27 yilligi MFY	279,7	0,80	223,8
					Mustahkam MFY	279,7	0,88	246,2
					Navbahor MFY	279,7	0,95	265,8
					Navoiy MFY	279,7	0,95	265,8
					Nishobbo‘yi MFY	279,7	0,90	251,8
					Orday MFY	279,7	0,70	195,8
					Sanoatchilar MFY	279,7	0,90	251,8
					Sarqamish MFY	279,7	0,75	209,8
					Solpi MFY	279,7	0,88	246,2
					Yuksalish MFY	279,7	0,88	246,2
					Tosh ota MFY	279,7	0,70	195,8
					To‘raobod MFY	279,7	0,90	251,8
					Uzun ko‘cha MFY	279,7	0,95	265,8
					Uch ko‘cha MFY	279,7	0,88	246,2
					Ipak yo‘li MFY	279,7	0,88	246,2
					Xidirsha MFY	279,7	0,70	195,8
					Chimbuloq MFY	279,7	0,88	246,2
					Fayzobod MFY	279,7	0,88	246,2
					Shaxrixonsoy MFY	279,7	0,90	251,8
					Yangi Farg‘ona MFY	279,7	0,90	251,8
					Yangi hayot MFY	279,7	0,90	251,8

					Mustaqillikning 30 yilligi MFY	279,7	0,88	246,2